

TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Axmedova Dilafro'z Elshodovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent, O'zbekiston. dilafruzahmed@icloud.com

ORCID: 0009-0002-0213-8655

SCIENTIFIC-THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF STRENGTHENING THE DEPOSIT BASE OF COMMERCIAL BANKS

Akhmedova Dilafroz Elshodovna

Independent Researcher, Tashkent State University of Economics

Tashkent, Uzbekistan Email: dilafruzahmed@icloud.com

ORCID: 0009-0002-0213-8655

JEL classification: G21, E51, G28, G32, E51.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank tizimini isloh qilish sharoitida tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlashning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida depozitlar bank majburiyatlari tarkibidagi o'рни va ahamiyati, ularning barqaror resurs manbai sifatidagi roli hamda banklar moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, depozit bazasini mustahkamlash banklar likvidligini ta'minlash, kreditlash faoliyatini kengaytirish va umumiy moliyaviy barqarorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu munosabat bilan maqolada tijorat banklarida depozit siyosatini takomillashtirish, zamonaviy bank xizmatlarini joriy etish va mijozlar ishonchini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: depozitlar, bank majburiyatlari, resurs bazasi, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, foiz siyosati, bank tizimi islohoti.

Abstract. This article examines the scientific-theoretical and practical aspects of

strengthening the deposit base of commercial banks in the context of banking system reforms. The study analyzes the role and importance of deposits in the structure of bank liabilities, their function as a stable source of funding, and their impact on the financial stability of banks.

The findings indicate that strengthening the deposit base is a key factor in ensuring bank liquidity, expanding lending activities, and improving overall financial stability. In this regard, the article proposes practical recommendations aimed at improving deposit policy in commercial banks, introducing modern banking services, and increasing customer trust

Key words: Deposits, bank liabilities, resource base, liquidity, financial stability, interest rate policy, banking system reform.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-son "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida birinchi navbatda, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlarini yanada oshirish, shuningdek, banklarning xalqaro

kapital bozorlariga chiqishi hisobiga bank tizimiga qo'shimcha resurslarni jalb qilish, shuningdek, depozitlarni jalb qilish sohasidagi faolligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan ijro etuvchi (boshqaruv) organlarining samaradorligi mezonlarni ishlab chiqish va o'rnatish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. [1]

Hozirgi global iqtisodiy o'zgarishlar va moliyaviy bozorlardagi yuqori noaniqlik sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, jumladan depozit manbalarini kengaytirish va diversifikatsiya qilish masalalari dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki depozitlar banklarning asosiy moliyaviy resurs manbai bo'lib, ularning likvidligi, to'lov qobiliyati va kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda bank tizimini isloh qilish doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tijorat banklarining institutsional rivojlanishi, raqobat muhitini kuchaytirish va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur islohotlar depozit siyosatini takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash orqali depozit bazasini kengaytirishni talab etmoqda.

Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash masalasi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki milliy iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Zero, barqaror depozit resurslari banklarning uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi bank tizimini isloh qilish sharoitida tijorat

banklarining depozit bazasini mustahkamlashning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va amaliyotda uni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda depozit bazasining shakllanishi va rivojlanish omillari tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etishning samarali yo'llari asoslab beriladi..

Adabiyotlar sharhi. Tijorat banklarining depozit bazasini shakllantirish va mustahkamlash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda turli nazariy yondashuvlar shakllangan.

Xorijiy olimlardan F. Mishkin tadqiqotlarida depozitlar bank resurslarining asosiy manbai sifatida baholanib, ularning barqaror o'sishi moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan [2]. Shuningdek, D. Rouz bank menejmenti nuqtayi nazaridan depozit siyosatini to'g'ri tashkil etish orqali likvidlik va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini asoslab beradi [3].

J. Sinkining ilmiy ishlarida depozitlarni boshqarish strategik ahamiyatga ega ekanligi, banklar raqobatbardoshligi esa ko'p jihatdan depozit mahsulotlarining jozibadorligi va mijozlar ishonchiga bog'liqligi qayd etilgan [4]. Shuningdek, G.S. Panova va V.M. Usoskin tadqiqotlarida tijorat banklarining foiz siyosati kredit va depozit operatsiyalari muvozanatini ta'minlashda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Ularning xulosalariga ko'ra, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining asossiz oshirilishi qisqa muddatda resurslar oqimini ko'paytirishi mumkin, biroq uzoq muddatda bank foydaliligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [5].

MDH mamlakatlari olimlaridan O. Lavrushin va G. Beloglazova ishlarida bank

resurs bazasini shakllantirishda depozit siyosatining ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Ular depozitlar tarkibini optimallashtirish, foiz siyosatini asoslangan holda belgilash va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish orqali banklar barqarorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayevaning tadqiqotlarida esa O'zbekiston sharoitida tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash, aholi omonatlarini jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish va raqamli bank xizmatlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [7].

Sh.Q. Alimov bank omonatlarining mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ta'sirini tahlil qilgan. U omonatlarning shakllanishida banklar va iste'molchilarning hamkorligi, moliyaviy savodxonlikni oshirish va ishonch muammosini hal qilish kerakligini ta'kidlagan. [8].

Natijalar. Depozit jalb qilish banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, depozit amaliyotisiz tijorat banklari o'zlarining boshqa asosiy vazifalarini bajarishlari mumkin emas. Banklarning bosh maqsadi bo'lgan foyda olishga erishish istiqbollari belgilovchi, ya'ni daromad keltiruvchi aktiv amallarni bajarish bilan bog'liq faoliyatlarida jalb qilingan va jamg'arilgan mablag'lar yoki depozitlar muhim o'rin tutadi.

Bank majburiyatlari tarkibida depozitlar eng muhim va ustuvor manba hisoblanadi. Ular tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirishda asosiy o'rinni

egallaydi va bank faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, depozitlar bank majburiyatlarining asosiy qismini tashkil etadi. Aholi va yuridik shaxslar tomonidan joylashtirilgan omonatlar banklar uchun eng arzon va nisbatan barqaror resurs manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, depozitlar kreditlash faoliyatini kengaytirish va iqtisodiyotni moliyalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, depozitlar bank likvidligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Talab qilib olinadigan va muddatli depozitlar tarkibi bankning joriy to'lov qobiliyatini saqlash imkonini beradi. Muddatli depozitlar ulushining yuqori bo'lishi esa resurslarni uzoq muddatli joylashtirishga sharoit yaratadi.

Uchinchidan, depozitlar bankning foiz siyosatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Depozitlar bo'yicha belgilanadigan foiz stavkalari kredit foizlari darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu orqali bankning daromadligi va raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

To'rtinchidan, depozitlar banklar uchun risklarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Depozit bazasining diversifikatsiya qilinganligi (aholi, korxonalar, turli muddatlar bo'yicha) likvidlik risklarini kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

Beshinchidan, depozitlar aholi va biznes subyektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonch darajasini ifoda etadi. Depozitlar hajmining o'sishi bank tizimiga ishonch oshganligini, kamayishi esa aksincha holatni ko'rsatadi.

Tijorat banklari majburiyatlari tarkibi [9]

Ko'rsatkichlar nomi	01.01.2024-y.		01.01.2025-y.		01.01.2026-y.	
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda
Depozitlar	241 687	43,5%	308 692	47,2%	417 258	52,9%
Markaziy bankning vakillik hisobvarag'i	1 345	0,2%	1 727	0,3%	1 149	0,1%
Boshqa banklarning mablag'lari-rezident	24 577	4,4%	25 008	3,8%	28 993	3,7%
Boshqa banklarning mablag'lari-norezident	20 074	3,6%	16 428	2,5%	18 086	2,3%
Olingan kreditlar va lizing operatsiyalari	224 351	40,4%	234 667	35,9%	247 691	31,4%
Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar	13 161	2,4%	29 095	4,45%	37 246	4,7%
Subordinar qarzlilar	9 653	1,7%	11 299	1,7%	11 972	1,5%
To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar	8 106	1,5%	9 823	1,5%	9 591	1,2%
Boshqa majburiyatlar	12 125	2,2%	17 798	2,7%	17 438	2,2%
Jami majburiyatlar	555 078	100%	654 538	100%	789 424	100%

Berilgan jadval ma'lumotlari tijorat banklari majburiyatlari tarkibidagi o'zgarishlarni 2024–2026-yillar kesimida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar asosida quyidagi muhim xulosalarni chiqarish mumkin:

Avvalo, depozitlar hajmi va ulushi izchil o'sib borayotgani kuzatiladi. 2024-yilda 241 687 mlrd so'm (43,5%) bo'lgan depozitlar 2026-yilga kelib 417 258 mlrd so'mga (52,9%) yetgan. Bu holat banklar resurs bazasida depozitlarning roli kuchayib borayotganini va aholi hamda biznes subyektlarining bank tizimiga ishonchi ortganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, depozitlar ulushining 50 foizdan oshishi banklarning tashqi qarz manbalariga qaramligini kamaytirayotganini anglatadi.

Ikkinchidan, olingan kreditlar va lizing operatsiyalari ulushi pasayish

tendensiyasiga ega. Ushbu ko'rsatkich 40,4 foizdan 31,4 foizgacha kamaygan. Bu esa banklarning tashqi qarzlilar hisobiga emas, balki ichki resurslar — depozitlar orqali moliyalashtirishga ko'proq e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. Mazkur holat moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan ijobiy baholanadi.

Uchinchidan, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ulushi sezilarli oshgan (2,4% dan 4,7% gacha). Bu banklar tomonidan kapital bozorlaridan resurs jalb qilish amaliyoti kengayib borayotganini va moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi ta'minlanayotganini anglatadi.

To'rtinchidan, boshqa banklarning mablag'lari (ayniqsa norezidentlar hissasi) qisqargan. Norezident banklar mablag'lari 3,6% dan 2,3% gacha kamaygan. Bu tashqi moliyaviy resurslarga bog'liqlikning

pasayishi va ichki moliyalashtirish manbalari ustuvorligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Beshinchidan, subordinar qarzlar va boshqa majburiyatlar ulushi nisbatan barqaror saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning umumiy majburiyatlardagi salmog'i yuqori emas. Bu esa banklar kapital tuzilmasida ehtiyotkor siyosat yuritayotganini anglatadi.

Shuningdek, jami majburiyatlar hajmi izchil o'sgan (555 trln so'mdan 789 trln so'mgacha), bu bank tizimi faoliyati kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy jihatidan eng asosiy o'rinlardan birini egallovchi depozit siyosati moliyaviy jihatdan pul oqimlarining mutanosibligini ta'minlab turish va mazkur moliyaviy instrumentlardan yuqori foyda olishni yagona bir strategik tizim sifatida mujassamlashgan bo'ladi. Tijorat banklari spetsifik yo'nalishi jihatidan har xil turlarga bo'linganligiga qaramay o'ziga xos depozit siyosatiga ega bo'ladi. Mazkur depozit siyosati barcha moliya muassasalarning yuqori daromad keltiradigan bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Depozit siyosatining asosini

tashkil etuvchi bank resurslari bazasi depozit portfelida mujassamlashgan bo'ladi. Mazkur depozit portfeli joylashtirilgan va jalb etilgan resurslardan tashkil topgan bo'ladi.

Joylashtirilgan bank resurslari bazasiga:

- Banklararo muddatli va foizli depozitlar;

- Kreditlar;

- Kredit liniyasi bo'yicha ochilgan akkreditivlar;

- Faktoring operatsiyalari;

- Boshqa turdagi derivativ foizli depozitlari kiradi.

Jalb qilingan bank resurslar bazasiga:

- Banklararo muddatli va foiz depozitlari;

- Har xil turdagi omonatlar;

- Korporativ omonat investitsiyalari kiradi.

Tijorat banklarining g'aznachilik boshqarmalari tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan joylashtirilgan va jalb qilingan resurslar bazasi o'rtasidagi mutanosibliklarni foiz belgilash va muddat o'rnatish yo'li orqali boshqariladi.

2-jadval.

Jami depozitlarning muddatlari bo'yicha qoldig'i¹, mlrd so'm [9]

Sana	Jami	muddat bo'yicha				
		Talab qilib olinguncha	1 kundan 30 kungacha	30 kundan 180 kungacha	180 kundan 365 kungacha	1 yildan yuqori
01.01.2024-y.	241 687	85 198	6 301	30 028	34 952	85 209
01.01.2025-y.	308 692	99 094	11 668	32 312	46 260	119 359
01.01.2026-y.	417 258	125 889	13 823	57 787	63 032	156 727

Berilgan jadval ma'lumotlari asosida bankning depozitlari (majburiyatlari) muddat bo'yicha tarkibi tahlil qilinganda, umumiy hajm barqaror va yuqori sur'atda o'sish

tendensiyasiga ega ekanligi kuzatiladi. Jumladan, 01.01.2024-yilda jami depozitlar hajmi 241 687 ni tashkil etgan bo'lsa, 01.01.2025-yilga kelib 308 692 ga,

¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326195/>

01.01.2026-yilda esa 417 258 ga yetgan.

Bu esa tahlil davrida bank resurs bazasi sezilarli darajada kengayganini anglatadi.

Muddat tuzilmasi bo'yicha qaralganda, "talab qilib olinguncha" depozitlar 2024-yilda 85 198 ni tashkil etgan bo'lib, 2026-yilga kelib 125 889 ga oshgan. Ushbu ko'rsatkichning mutlaq o'sishiga qaramasdan, uning jami depozitlar tarkibidagi ulushi biroz pasayish tendensiyasiga ega, ya'ni bank mijozlarining ma'lum qismi mablag'larni uzoqroq muddatlarga joylashtirayotganini ko'rsatadi.

1 kundan 30 kungacha bo'lgan depozitlar hajmi ham barqaror o'sgan bo'lib, 2024-yilda 6 301 ni, 2025-yilda 11 668 ni va 2026-yilda 13 823 ni tashkil etgan. Bu qisqa muddatli resurslarning sekin-asta kengayib borayotganini anglatadi. 30 kundan 180 kungacha bo'lgan depozitlar segmentida esa eng yuqori o'sish sur'ati kuzatiladi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilda 30 028 bo'lgan bo'lsa, 2026-yilda 57 787 ga yetgan. Bu holat mijozlar o'rta muddatli joylashtirishga ko'proq e'tibor qaratayotganini va bankka nisbatan ishonch oshganini ko'rsatadi. 180 kundan 365 kungacha bo'lgan depozitlar ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda 34 952 ni, 2026-yilda esa 63 032 ni tashkil etgan. Bu uzoqroq muddatli resurslar ulushining oshishini anglatadi. 1 yildan yuqori muddatli depozitlar esa eng yuqori mutlaq o'sishni ko'rsatgan bo'lib, 85 209 dan 156 727 gacha oshgan. Bu bank resurs bazasining barqarorlashuvi va uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarining kuchayganini anglatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari bank depozit siyosati ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi. Jami depozitlar hajmi sezilarli o'sgan, ayniqsa o'rta va uzoq muddatli depozitlar ulushi oshgan. Bu esa bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganini va kreditlash

hamda investitsiya faoliyati uchun resurs bazasi kengayib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi hali ham yuqori bo'lgani uchun likvidlik risklarini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tijorat banklari depozit bazasining barqarorligi ko'p jihatdan jalb etilgan mablag'larning muddatlar tuzilmasiga bog'liq hisoblanadi. Depozitlarning muddatlari bank resurslarining qay darajada uzoq muddatga jalb etilganligini belgilab, bu o'z navbatida bankning likvidligi, to'lov qobiliyati va kreditlash faoliyati barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qisqa muddatli depozitlar (talab qilib olinadigan va 1 yilgacha bo'lgan omonatlar) banklar uchun arzon resurs manbai hisoblansa-da, ularning yuqori darajada o'zgaruvchanligi likvidlik risklarini oshiradi. Bunday depozitlar mijozlar tomonidan istalgan vaqtda qaytarib olinishi mumkin bo'lgani sababli, banklar aktiv operatsiyalarni rejalashtirishda muayyan noaniqlikka duch keladi. Shu jihatdan, qisqa muddatli depozitlar ulushining ortib ketishi depozit bazasi barqarorligini pasaytiradi.

Uzoq muddatli depozitlar esa banklar uchun nisbatan barqaror va ishonchli resurs manbai hisoblanadi. Ularning ustunligi shundaki, bank ushbu mablag'lardan ma'lum bir muddat davomida erkin foydalanishi mumkin bo'ladi, bu esa uzoq muddatli kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada, aktiv va passivlarning muddatlari o'rtasidagi muvofiqlik (maturity matching) ta'minlanib, likvidlik risklari kamayadi.

Depozit bazasi barqaror bo'lishi va banklar resurslar samaradorligini oshirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy taklifni keltirish mumkin:

talab qilib olinadigan omonatlar bo'yicha bir yil davomida, muddatli va

jamg'arma omonatlarning muddati tugagandan keyin bir yil davomida foizlar hisoblanishidan tashqari hech qanday amaliyotlar amalga oshirilmaganda omonat hisobvarag'i chiqim amaliyotiga ta'qiq qo'yishi lozim.

Bundan kutiladigan natijalar quyidagilarda namoyon bo'ladi:


1. firibgarlik va noqonuniy operatsiyalar riskini kamaytirish

2. mijozni bank bilan qayta identifikatsiyadan o'tishga undaydi va mablag'lar ustidan nazoratni tiklaydi;

3. bank tizimida ortiqcha yuk va monitoring murakkabligini oshiradi va riskli segmentni ajratib ko'rsatadi;

4. bu mablag'larni real likvidlik rejalashtirishda ehtiyotkor hisobga olishga yordam beradi.

Bu taklifni (faollik bo'lmagan omonat hisobvaraqlariga chiqim operatsiyalarini vaqtincha cheklash) ehtiyotkorlik bilan asoslash mumkin, lekin uni to'g'ridan-to'g'ri "taqiq" shaklida joriy etish bir qator huquqiy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi.



1-rasm. Tijorat banklarining depozitlari to'g'risida ma'lumot, mlrd so'm

Berilgan rasm asosida tijorat banklari depozitlarining jismoniy va yuridik shaxslar kesimidagi tarkibi tahlil qilinganda, umumiy depozitlar hajmida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi.

Jami depozitlar 01.01.2024-yilda 241 687 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib sezilarli darajada oshib, 308 692 mlrd so'mga yetgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga esa ushbu ko'rsatkich 417 258 mlrd so'mni tashkil etib, bank tizimidagi depozit bazasi yanada kengayganini ko'rsatadi. Tarkibiy jihatdan qaralganda, jismoniy shaxslar depozitlari 2024-yilda 86 345 mlrd

so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 122 421 mlrd so'mga, 2026-yilda esa 160 401 mlrd so'mga yetgan. Bu aholi mablag'larini bank tizimiga jalb qilish samaradorligi oshib borayotganini va aholining banklarga bo'lgan ishonchi kuchayotganini anglatadi.

Yuridik shaxslar depozitlari ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda 155 342 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 186 272 mlrd so'mga, 2026-yilda esa 256 857 mlrd so'mga yetgan. Ushbu o'sish korxonalar va tashkilotlarning bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga joylashtirish hajmi ortib borayotganini

Kredit qo'yimlari ning depozitlarga nisbati	195%	268%	118%	173%	237%	108%	145%	190%	98%
Kreditlar	47140 6	333219	138186	533121	366731	166391	604002	40446 9	199533
Depozitlar	24168 7	124305	117381	308692	154511	154181	417258	21267 1	204588

Berilgan jadval ma'lumotlari asosida kredit qo'yimlarining depozitlarga nisbati hamda davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar kesimidagi dinamika tahlil qilinganda, bank tizimida muhim o'zgarishlar kuzatiladi.

Umumiy holatda kredit qo'yimlarining depozitlarga nisbati 01.01.2024 (jadvalda 2025 sifatida qayd etilgan) yilda 195% ni tashkil etgan bo'lsa, keyingi davrda pasayish tendensiyasi kuzatilgan: 173% va 145% gacha tushgan. Bu holat bank tizimida depozitlar o'sishi kreditlarga nisbatan tezroq kechayotganini va moliyaviy barqarorlikning yaxshilanib borayotganini anglatadi.

Davlat ulushi mavjud banklar bo'yicha kredit/depozit nisbati 268% dan 237% orqali 190% gacha kamaygan. Bu davlat banklarida kredit portfeli hali ham depozit bazasiga nisbatan yuqori ekanini ko'rsatsa-da, so'nggi yillarda depozitlar jalbi kuchaygani hisobiga nisbatning pasayishi kuzatilmoqda. Boshqa banklar kesimida esa ushbu ko'rsatkich 118% dan 108% va keyinchalik 98% gacha tushgan. Bu xususiy banklarda kreditlash va depozitlar o'rtasidagi mutanosiblik yaxshilanib borayotganini, ya'ni banklar depozit bazasiga tayangan holda kredit operatsiyalarini amalga oshirayotganini anglatadi.

Kreditlar va depozitlar hajmi dinamikasiga e'tibor qaratisa, kreditlar umumiy miqdori 471 406 dan 604 002 gacha oshgan. Shu bilan birga depozitlar ham 241 687 dan 417 258 gacha sezilarli o'sgan. Lekin depozitlar o'sish sur'ati kreditlarga nisbatan yuqori bo'lgani uchun kredit/depozit nisbati pasaygan.

Umuman olganda, tahlil natijalari bank tizimida depozitlar bazasi mustahkamlanayotganini, kreditlash faoliyati esa barqaror o'sishda davom etayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, kredit/depozit nisbatining pasayishi bank tizimida likvidlik holati yaxshilanib borayotganidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida depozit bazasi barqarorligini ta'minlashda, undagi bo'layotgan o'zgarishlarni inobatga olgan holda keyingi davrni prognoz qilishda stress-test o'tkazish amaliyoti bugungi kunda keng qo'llanilmoqda.

Stress-test - bank moliyaviy holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan istisnoli, biroq uchrashi mumkin bo'lgan hodisalarni o'lchashning tahliliy usullar to'plami. Stress-test bu tashqi muhitdagi (masalan, iqtisodiyotdagi pasayishlar, foiz stavkalarining va valyuta kurslarining o'zgarishi va boshqalar) va mijozlar va kontragentlar faoliyatidagi (depozitlarning ommaviy chiqib ketishi) salbiy o'zgarishlarning bankka keltirishi mumkin

bo'lgan zararlarini baholashning tahliliy instrumentlaridan biri.

Stress-testni o'tkazishda gipotetik ssenariylik usullaridan keng foydalaniladi, ya'ni bank faoliyatida sodir bo'lmagan, lekin inqiroz holatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan risk omillarining o'zgarishiga asoslangan stress-test. Bu o'z navbatida ssenariyning keskinligiga qarab pessimistik, kritik, katastrofik stress-testlarga bo'linadi.

Fikrimizcha, banklarning resurs bazasi barqarorligini aniqlashda stress-test o'tkazish parametri sifatida jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha hisobraqamlaridagi oxirgi oydagi o'rtacha kunlik qoldiq 15 foizga, muddatli va jamg'arma depozitlari hisobraqamlaridagi mablag'lar qoldig'i esa 20 foizga kamayishi hamda ushbu depozit turlari bo'yicha depozitlar jalb qilish imkoniyati 20 foizga kamayishi pessimistik ssenariy deb belgilash maqsadga muvofiq.

Ushbu taklifni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

jismoniy shaxslar depozitlari eng "mobil" va tez yechib olinadigan resurs hisoblanadi;

pessimistik ssenariy moliyaviy hisobotlarda zaiflikni inobatga oladi va bunda aholi omonatlarini qisqartiradi;

boshqa banklar yuqori foiz taklif qilsa, omonatlar chiqib ketishi tezlashadi.

Shuningdek, bank jami depozit portfelining ma'lum foizi chiqib ketishi ssenariysini ham ko'rib chiqish va doimiy monitoringini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bank jami depozit portfelining ma'lum foizi chiqib ketishi ssenariysi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida, masalan, makroiqtisodiy holatdagi salbiy tendensiya, bankning yirik mijozlari faoliyatidagi tebranishlar, mamlakat pul-kredit yoki soliq-fiskal siyosatdagi o'zgarishlar natijasida bank depozit portfeli qisqarishi yuz beradi.

Mazkur holatni aniqlik darajasini oshirish va oldini olish hamda kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan holatlar uchun baholashda quyidagi parametrlarni kiritish mumkin, ya'ni bank jami depozit portfelining 5 foizi chiqib ketishi ssenariysi bo'yicha stress-test o'tkazishda bank depozit portfelining qisqarishi depozitlarning qaytarish jadvalidagi har bir guruh bo'yicha ham proporsional sur'atda kechishini parametr sifatida kiritishni taklif qilish mumkin.

Ushbu taklifni quyidagi asoslar bilan ilmiy jihatdan mustahkamlash mumkin:

xulqiy neytrallikni ta'minlaydi;

riskni bir xil darajada taqsimlaydi;

likvidlik stressini konservativ baholaydi;

ma'lumot yetishmovchiligi sharoitida metodologik jihatdan maqbul yondashuv hisoblanadi.

Umuman olganda, tijorat banklarining depozit bazasi bankning barqaror faoliyat yuritishi, rentabellik darajasini bir me'yorda saqlab turishi, bank xarajatlarini optimallashtirishi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, banklarda resurslar hamda likvidlik bilan bog'liq risklarni salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi, mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida va yo'qotishlarsiz bajara olinim imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Bank tizimini isloh qilish sharoitida tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash masalasi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, depozit bazasining barqarorligi bank resurslarining uzoq muddatlilik, likvidlik darajasi va kreditlash faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-nazariy tahlillar asosida depozit bazasini shakllantirishda muddatli

omonatlarning ulushini oshirish, foiz siyosatini bozor mexanizmlariga mos ravishda takomillashtirish hamda aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash muhim omillar ekanligi aniqlandi. Shuningdek, depozitlarni diversifikatsiya qilish, jumladan, depozit sertifikatlari va yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish orqali resurs bazasini kengaytirish imkoniyatlari asoslab berildi.

Amaliy jihatdan esa, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga qulay va jozibador omonat mahsulotlarini taklif etish, shuningdek, risklarni samarali boshqarish mexanizmlarini joriy qilish depozit bazasini mustahkamlashda muhim

ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, passiv operatsiyalarni faol boshqarish va aktiv-passiv muvofiqligini ta'minlash banklar moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari majburiyatlari tarkibida sifat jihatidan ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, depozitlar ulushining ortishi, tashqi qarzlarga qaramlikning kamayishi va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiya qilinishi bank tizimining moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa bank tizimini isloh qilish jarayonlari samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — 11th ed. — Boston: Pearson Education, 2016. — 720 p.
3. Rose P.S., Hudgins S.C. Bank Management and Financial Services. — 9th ed. — New York: McGraw-Hill, 2013. — 768 p.
4. Sinkey J.F. Commercial Bank Financial Management in the Financial Services Industry. — 6th ed. — New Jersey: Prentice Hall, 2002. — 696 p.
5. Панова Г.С., Усоскин В.М. Банковское дело: управление и технологии. — Москва: Финансы и статистика, 2010. — 592 с.
6. Лаврушин О.И. Банковское дело. — Москва: КНОРУС, 2016. — 800 с.
7. Абдуллаева Ш.З. Банк иши. — Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2018. — 420 б.
8. Alimov Sh.Q., "O'zbekistonda aholi omonatlari: muammo va yechimlar". Toshkent, 2020.
9. <https://cbu.uz/oz/publications/annual-report/>